

SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI HUDUDIDA TARQALGAN *PHLOMIS* L. TURKUMI TURLARINING BIOEKOLOGIYASI VA TARQALISHI

Ibragimov Akram Javliyevich¹,

Rajapova Nilufar Po'lat qizi²,

Xolmo'minova Mushtariy Bahriddin qizi²

1. Termiz davlat universiteti Botanika kafedrası dotsenti

2. Termiz davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya: *Phlomis* L. turkumi Surxon davlat qo'riqxonasida to'g'li hududlarda alohida o'rin egallaydi. *Phlomis* L. turkumi turlari *Lamiaceae* oilasiga kiruvchi o'simlik bo'lib, Surxondaryo florasida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu oilaning hozirgi kunda yer yuzida 232 turkumga mansub 8,091 ta turi[12] uchraydi. *Phlomis* L. turkumini esa 110 ta turi[12] tarqalgan. *Lamiaceae* oilasi O'rta Osiyoda 53 turkum 462 dan ortiq turi[1] tarqalgan bo'lib, O'zbekistonda 25 turkum 123 ta turi[2] mavjud. *Phlomis* turkumiga mansub 3 ta tur (*Phlomis olgae*, *Phlomis spinidens*, *Phlomis thapsoides*) Surxon davlat qo'riqxonasida tarqalgan. *Phlomis* L. turkumiga kiruvchi ushbu turlar –tog' hududlarida keng tarqalgan. Tuproqning unumdorligi turning ko'payishida va o'sishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada ana shu turlarning morfologik belgilari, ekologik o'ziga xosliklari, tarqalish joylari va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilamiz. Tadqiqot natijalar ushbu turlarni saqlash va boshqa hududlarga moslashtirish imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.


Kalit so'zlar: *Plomis* L. turkum, tog', oila, Surxon, flora, okrug, tur.

Kirish: Surxon davlat qo'riqxonasi Ko'hitang tog' tizmasining sharqiy yonbag'rida joylashgan. Ma'muriy jihatdan Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududiga qarashli. Qo'riqxona hududi shimoldan Tangidara soyi bilan chegaralanadi. Sharqiy chegarasi Xatak, Xo'janqo, Qizilolma, Shalqon, Kampirtepa, Sherjon va Vandob qishloqlari bilan, janubiy hududi Xo'jaikon tuz koni bilan tutashib ketgan. Surxon qo'riqxonasining umumiy yer maydoni 24554 ga bo'lib, murakkab geomorfologik tuzilishga ega. Hudud chegarasining janubdan shimolga umumiy uzunligi taxminan 70 km ni tashkil etadi va dengiz sathidan 850-3137 m balandliklarda joylashgan. O'rtacha suv ayirgich balandligi shimolda (Xatak bo'limi) 2682 m, markaziy qismida 3137 m (Kampirtepa bo'limining Ayri bobo cho'qqisi) hamda janubiy qismida 2361 m ni (Vandob bo'limi) tashkil etadi.

Surxon davlat qo'riqxonasi florasida O'rta Osiyo fitogeografik mintaqasining eng noyob komponentlarini o'z ichiga oladi. Bu hududda o'tkazilgan floristik va taksonomik tadqiqotlar natijasida yetakchi botanik olimlar — S.A. Nevskiy [3], K.Sh. Tojibaev [4], F.O. Xasanov [5] va A.J. Ibragimov [6] tomonidan qator muhim ilmiy

xulosalar ilgari surilgan. Tadqiqotlar davomida ayniqsa Veronica L. turkumiga mansub turlar alohida e'tibor bilan o'rganilgan. Qo'riqxonada *Phlomis* L. turkumiga oid: *Phlomis olgae*, *Phlomis spinidens*, *Phlomis thapsoides* turlari uchrashi aniqlangan va qator adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Oxirgi izlarga ko'ra Surxon davlat qo'riqxonasida *Phlomis* L. turkumiga oid 3ta turi uchrashi aniqlangan va quyida ushbu turlarga alohida to'xtalib o'tamiz.

***Phlomis spinidens* Nevski.** Hayotiy shakli ko'p yillik, balantligi 50-65 sm, poyasi tik, poyasi shoxlangan, o'simlik tanasi mayin tuklarga ega, bu tuklar yulduzsimon va monoradial (bir yunalishli) bo'lim himoya va namlikni ushlab turishga yordam beradi. Bargi uzunchoq tuxumsimon yoki tuxumsimon-nayzasimon (ya'ni, o'rtasi kengaygan va uchlari nozik) shaklda, uzunligi 7-15 sm, eni 2.5-5 sm, barg yaprog'i biroz tishli, barg poyaga o'tkir burchak ostida konussimon birikadi, barg bandi uzunligi 1-2 sm, eni 5-7 mm, Guli simmetrik, kichik, gulning yuqori tomoni yashil yashil bo'lib, siyrak yulduzsimon tuklar bilan qoplangan, pastki qismi oq rangda bo'lib, mayda yulduzsimon tukchalar zich bo'lib joylashadi, ostki qismida tomirlari aniq ko'rinadi, guli 4-6 ta guruh bolib o'sadi, gul bandi qisqa, gulband uzunligi 15-25 mm bo'lib, tikanli tuzulishga ega. Gulkosacha shakli qo'ng'iroqsimon yoyilgan, maxsus tishchalar bo'lib ular o'zaro simmetrik emas, usti monoradial tukchalar bilan qoplangan. Gultojpushtiyoki binafsha rangli, shakli naysimon tuksiz, uning ustini yulduzsimon tukchalar mavjud, changchilari uzun va mayda tuklar bilan qoplangan. Mevasida tuklar uchramaydi, kichik va qattiq bo'ladi, o'simlik iyun oylarida gullaydi va keyingi oyda meva hosil qiladi. Tog' yonbag'rida, archa va ignabargli o'rmonzorlarda, quyosh nuri kam tushadigan joylarda o'sadi. O'rta Osiyo hududlarida, Pomir-Olay tog' tizmi, turkmaniston va Tojikiston hududlari, O'zbekiston surxondaryo viloyatida uchraydi.



***Phlomis thapsoides* Bunge.** ko'p yillik o'simlik, balandligi 30-60sm, poyasi qalin va tik, yuqori qismi kuchli shoxlangan, yulduzsimon tukchalar bilan qoplangan. Bargi- yuraksimon yoki ovalsimon shaklga ega, poyadagi bargning uzunligi 7-12 sm, kengligi 3-6 sm, ikkitadan barglar bir-biriga poyada qarama-qarshi joylashadi, gul atrofidagi barglar uzunligi 5-7 sm, kengligi 3-3.5 sm, poya yuqori qismida joylashgan barglar 2.5-3 sm uzunlikda, kengligi 1.5 sm, barg usti och yashil, mayda tuklar bilan qoplangan, Bargning pastki yuzasida oq rangda tuklar mavjud bo'lib, ular monoradial (ya'ni bitta yo'nalishda joylashgan) yulduzsimon tukchalar mavjud, bu tuklar bargni himoya qilish va uni ekologik sharoitlarga moslashishiga yordam beradi. Gul-poyada halqasimon joylashgan, qiyshiq (zigamorf) bo'ladi, har bir halqada 2dan 8tagacha gul bo'lishi mumkin, poyada gulli halqa 5 yoki 6 marta takrorlanishi mumkin, gul bandi ostida bargsimon tuzulma mavjud bo'lib uzunligi 14-18 mm, bu tuzulma odatda 2 ta, ba'zan, 3 ta bolib o'sadi, ular qalin va uchlari o'tkir bo'lib gulkosacga bilan bir uzunlikda bo'ladi. Gulkosacha-gulning tashqi tomondan o'rab turuvchi qobiq, uzunligi 10-16 sm, zich tuklar bilan qoplangan, chnetki qismida tishsimon usimtalar bo'lib, bir xil kattalikda uchi o'tkir bo'ladi. Gultoji-gukning ichki qismini o'rab turadi, rangi och binafsha bo'lib quvursimon tuzulishga ega, quvurchaning og'iz qismida monoradial (bir yo'nalishli) tuklar halqasimon o'rab oladi, u hashorotlarni jalb qilishda muhim

ahamyat kasb etadi. Urug`-kichik va qattiq, jigarrang, tuksiz, tekis yuza uning tarqalishda(quruq, tog`li, shamolli joylarda) yordam beradi.

Gullash davri odatda iyundan avgustgacha, meva hosil bo`lishi gullashdan keyin amalga oshadi va gullashdan 1-2 oy o`tib urug`lar yetiladi, o`simlik-tog` etaklarida, qumli va toshli hududlarda uchraydi, o`simlik quruq, shammoli, suv kam sharoitga moslashgan, ot o`simliklar va butalar orasida uchratish mumkun.

Markaziy osiyo tog` tizmasida, Qozog`iston, Pomir-olay tog hududlari, Nurota (1500-2000 m) tog`i Kaypan atrofida, O`zbekistonning Surhondaryo, Qashqadaryova Samarqand hududlarida tarqalgan.



***Phlomis olgae* Regel.**

Ko`p yillik o`t o`simlik bo`lib, bo`yi 30-50 sm gacha boradi, odatda bitta uzun poya yoki bir nechta (shohlangan) poya hosil qiladi. Poya va shohlarining ustki qismi zich tuklar bilan qoplangan. Bu tuklar yulduz shaklda (vilolcha)ga o`xshash tuzulishga ega. Barg- poyada ketma-ket joylashgan, shakli elliptik yoki tuxumsimon, ildizga yaqin joylashgan barglar dumaloq yoki yurakchasimon, ularning uzunligi taxminan 12-15 sm, kengligi 5-7 sm atrofida, poyaning ildizga yaqin joylashgan barglar biroz kichikroq, taxminan uzunligi 7,5 sm, kengligi 3,5 sm bo`ladi. Barg yaprog`ining chetki qismi silliq, ustki yuzasi qattiq va sarg`ish-kulrang rangda, bargning ustki qismi yulduzsimon tuklar bilan qoplangan, bargning osti tomoni esa oq rangda, zich(vilolchali) tuklar bilan qoplangan. Guli-gullar poyada odatda 3-5 tagacha guruh

bo'lib joylashadi, harbir guruhda 4-8 tagacha (bazan 2 ta) gul bo'ladi, Gulni o'rab turgan bargchalar keng va to'g'ri shaklda yuqoriga qaragan, bu bargchalar uzunligi 18-30 sm bo'lib, gultojiga teng yoki undan uzunroq bo'ladi, ushbu bargchalar oq rangda bo'lib yulduzsimon tukchalar bilan qoplangan, bu tuklar bargchalarni himoya qiladi. Ba'zi o'simliklarda bu bargchalar juft-juft bo'lib, bir- biriga qisman yopishadi, ya'ni, ularning ikki bargi bir-biriga yaqin joylashib, ba'zan qo'shilgan ko'rinishda bo'ladi. Gulqo'rg'on- o'simliklarning gul qo'rg'oni qo'ng'iroqsimon shaklda bo'lib, yuqori qismi kenggaygan va yulduzsimon tuklar bn qoplangan. Gulqo'rg'on uzunligi 13-18 mm, tishsimon o'simtali 3-5 mm va 8-12 mm oralig'ida bo'ladi. Tishsimon o'simtalar uchi o'tkir va yon tomonga biroz egilgan bo'ladi.

Gultoji-gultojbarglar rangi pushti-binafsha gulqo'rg'ondan uzunoq yoki umga teng bo'ladi, ustki tomoni silliq, faqat yuqori tomonida yulduzsimon tuklar mavjud, ba'zi qismlari uzun, keng asosli tuklar bilan qoplangan bo'lib, ularning tepalari ham cho'ziq ya'ni uzun va ingichka shaklga ega. Mevalari - yalang'och, tuklarsiz yong'oqlar shaklida, u o'simlikning urug'larini saqlash va tarqatish usulini belgilaydi. Gullash vaqti maydan- iyulgacha. Tog'li hududlarda quruq joylarda, rang-barang qatlamlarda va qoyali yonbag'irlarda, butalar , archa o'rmonlarida va dashtlarda uchratish mumku.

O'rta Osiyo Pomir-Olay tog' tizmasida, tojikiston va O'zbekistonning Surxon hududlarida uchraydi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, *Phlomis* L. Surxon davlat qo'riqxonasining o'ziga xos florasini boyituvchi va biologik xilma-xillikni saqlashda muhim bo'lgan turkumlardan biri sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Определитель растений Средней Азии. Т.2. Ташкент Фан, 1974.
2. Флора Узбекистана том 2. Издательство "Маънавият" Ташкент 1955.
3. Невский. К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботаник географическое невиский С.А. Материалы к флоре Кугитангтау и его предгорий. В кн. Флора и систематика высших растений – М., Л.: Изд. АН СССР, 1937– С.
4. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016. – С. 1105-1132.
5. Хасанов Ф.О. Краткий очерк растительности Кугитанга // Тез. докл. юбил. науч. конф. молодых ученых и спец-тов посев 60-летию ЛКСМ Узб-на, 1985. – С. 167-168.
6. Ибрагимов Акрам Жавлиевич. Сурхон Давлат Қўриқхонасининг Флораси (Қўхитанг Тизмаси), Дис канд. биол. наук., Тошкент-2010.
7. Флора СССР том 6. В 6-е годы. – М., Л.: Изд. Академия наук СССР, 1934-1964.
8. Ачилова Наргиза Тухтаназаровна. Сурхон-Шеробод ботаник-географик раиони флораси. Дис канд. биол. Наук. 03.00.05-Ботаника, Карши-2021.
9. Inom Juramurodov, Rustam Uralov. Assessment of plant diversity in the Surkhan-Sherabad Region, Uzbekistan by grid mapping.

Foydalanilgan internet saytlari

10. <https://powo.science.kew.org/>
11. <https://www.plantarium.ru/>
12. <https://www.The World Flora Online.org/>